

2023 yil bo'yicha

**Rasmiy veb-saytda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib
chiqish natijalari haqidagi yillik**

HISOBOT

“Uzavtosanoat” AJda 2023 yil davomida aloqa kanallari orqali korrupsiyaga oid xabarlar kelib tushmagan.

Komplayenc xizmati rahbari



A. Umirzakov

Tizim korxonalariga korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik

H I S O B O T

2023 yil 20 dekabr

Andijon shahri

I. Umumiy ma'lumot

“UzautoComponents” MCHJ Komplayens xizmati tomonidan tizim korxonalariga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar va ularning ko'rib chiqish natijalari tahlil qilinib, umumlashtirildi.

Aniqlanishicha, 05.10.2023 yil holatiga “UzautoComponents” MCHJ tizimiga kiruvchi korxonalarda korrupsiyaga doir jami **4 ta holatlar aniqlangan** bo'lib, ulardan “**O'zChasys**” MCHJda 1 ta, “**O'zAuto-Austem**” MCHJda 1 ta, “**Avto Climate Control**” MCHJda 1 ta va yana **1 tasi “Avtokomponent” MChJdagi** holatlarni tashkil etadi.

Mazkur holatlardan **1 tasi** ya'ni, “**O'zAuto-Austem**” MCHJ **xodimlari tomonidan aniqlangan** holatni tashkil etgan bo'lsa, yana **1 tasi**, ya'ni “**Avtokomponent**” MChJdagi holat bevosita **fuqaroning murojaati** asosida aniqlangan holatni tashkil etadi.

Xususan, “**O'zAuto-Austem**” MCHJ qo'riqlash xizmati tomonidan 25.08.2023 yilda jamiyat xodimi U.Axmadbekov nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonlarida qonunbuzilishi holatlari sodir qilganligi to'g'risida jamiyat rahbariga bildirgi bergan.

Jamiyat bosh direktorining 25.08.2023 yildagi 83-son buyrug'i bilan “**O'zAuto-Austem**” MCHJ ishchisi U.Axmadbekov va boshqalarning xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Xizmat tekshiruvi davomida “**O'zAuto-Austem**” MCHJ ishlab chiqarish bo'limi muhandisi **U.Axmadbekov** hamda ishlab chiqarish bo'limi, payvandlash liniyasi brigadiri **A.Sotqinboyevlar** fuqaro M.Xayitov va shaxsini aniqlash imkoni bo'lmagan fuqarolarni aldab, ularni “**O'zAuto-Austem**” MCHJga ishga kiritib qo'yishni va'da berib, evaziga jami **15 ming AQSH dollari** pul mablag'larini yig'ib olganligi aniqlangan.

Xizmat tekshiruvi xulosasi va to'plangan hujjatlar U.Axmadbekov va A.Sotqinboyevlarning harakatlariga huquqiy baho berish uchun **Andijon shahar prokuraturasiga** yuborilgan.

Shuningdek, 03.10.2023 yilda fuqaro **F.Axmedova** “**Avtokomponent**” MChJ bosh direktori nomiga ariza bilan murojaat qilib, ushbu korxonada truba ishlab chiqarish sexi truba kesuvchisi **I.Karimov** undan **turmush o'rtog'i M.Xojimatovni korxonaga ishga kirib qo'yish evaziga 900 AQSH dollari** miqdorida pul olganligini bildirib, turmush o'rtog'i ishga kirmaganligi uchun pullarni undirib berishni so'ragan. Mazkur holat bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilib **Asaka tumani prokuraturasiga** yuborilgan.

“**O'zChasys**” MCHJ qo'shma korxonasiga korrupsiya faktlariga doir 1 dona murojaat kelib tushgan Namangan viloyati prokuraturasiga ma'lumotlar taqdim qilingan.

“**Avto Climate Control**” MCHJga 2023 yil davomida Korrupsiya faktlariga doir 1 dona yozma murojaat kelib tushgan.

Mazkur murojaat “Ergashxon Ona Mashrab” MCHJ tomonidan 01.03.2023 yilda 5/03-son bilan, korxonaning xodimlarni issiq ovqat bilan ta’minlash bo’yicha kiritgan 229614-sonli loti natijasi bo’yicha shartnoma imzolanmayotgani, xodimlar tomonidan asossiz imzolanishini ortga surilayotgani yuzasidan e’tiroz bildirilgan. Ushbu murojaat belgilangan tartibda o’rganib chiqilgan hamda “Ergashxon Ota Mashrab” MCHJ tomonidan lotga kiritilgan ma’lumotlar yolg’on bo’lganligi sababli lot bekor qilingani aniqlangan.

Murojaatni o’rganish yakuni bo’yicha o’zining obyektiv tasdig’ini topmagan va murojaat muallifiga 10.03.2023 yilda 04/01-12-187-sonli javob xati yuborilgan

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir holatlarni tahlil qilish davomida asosiy holatlar fuqarolarni ishga kiritib qo’yish holatlari bilan bog’liq ekanligi ma’lum bo’ldi.

Shundan kelib chiqib, kelgusida tizim korxonalarida nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonlarida O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-iyundagi 52-2023/B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi NAMUNAVIY NIZOMi asosida nomzodlarga ishga qabul qilish tartibi va shartlari to‘g‘risida to‘liq tushuntirish berish, saralash imtixonlarining tenglik asosida va shaffof o‘tkazilishini ta’minlashga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Komplayens xizmati boshlig‘i



T.Gafurov

“Avto Climate Control” MCHJda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik

HISOBOT

2023 yil 20 dekabr


Andijon shahri

“Avto Climate Control” MCHJga 2023 yil davomida Korrupsiya faktlariga doir 1 dona yozma murojaat kelib tushgan.

Mazkur murojaat “Ergashxon Ona Mashrab” MCHJ tomonidan 01.03.2023 yilda 5/03-son bilan, korxonaning xodimlarni issiq ovqat bilan ta’minlash bo’yicha kiritgan 229614-sonli loti natijasi bo’yicha shartnoma imzolanmayotgani, xodimlar tomonidan asossiz imzolanishini ortga surilayotgani yuzasidan e’tiroz bildirilgan. Ushbu murojaat belgilangan tartibda o’rganib chiqilgan hamda “Ergashxon Ota Mashrab” MCHJ tomonidan lotga kiritilgan ma’lumotlar yolg’on bo’lganligi sababli lot bekor qilingani aniqlangan.

Murojaatni o’rganish yakuni bo’yicha o’zining obyektiv tasdig’ini topmagan va murojaat muallifiga 10.03.2023 yilda 04/01-12-187-sonli javob xati yuborilgan.

Komplayens xizmati boshlig’i



T.B.Gafurov

**“UzAuto Austem” MCHJ QK korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik
HISOBOT**

2023 yil 20 dekabr

Andijon shahar

“UzAuto Austem” MCHJda 2023 yilda bitta holatda korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablar buzilganligi holatlari sodir etilgan.

Jumladan, jamiyatda ishlab chiqarish bo‘limi muhandisi vazifasida ishlab kelgan U.Axmadbekov fuqaro M.Xayitov va boshqa fuqarolarni aldab, garchand “UzautoComponents” MCHJning 28.01.2022 yildagi 113-07-sonli buyrug‘ining 1.2-bandiga asosan hodimlarni ishga qabul qilish ichki me‘yoriy hujjatlar talablari asosida korxonada rahbari tomonidan amalga oshirilishi qat‘iy belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, fuqarolarni ishga qabul qilishga hech qanday vakolati yo‘qligini oldindan bila turib, ulardan “O‘zAuto-Austem” MCHJga ishga kiritib qo‘yishiga va‘da berib, buning evaziga pul mablag‘lari olib kelgan.

Ushbu holat yuzasidan komplayens xizmati tomonidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, U.Axmadbekov jamiyat rahbarining 28.08.2023 yildagi 192-sonli buyrug‘i bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan va unga nisbatan to‘plangan hujjatlar Andijon shahar prokuraturasiga huquqiy baho berish uchun yuborilgan.

**Komplayens xizmati
boshlig‘i**



M.Akbaraliyev

**“Avtokomponent” MCHJda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko’rib
chiqish natijalari haqidagi yillik**

HISOBOT

2023 yil 20 dekabr

Andijon shahar

2023 – yil davomida “Avtokomponent” MCHJga korrupsiyaga oid, Avtokomponent MCHJda ishlovchi hodim fuqaroni ishga olib kirib qo’yish maqsadida 900 AQSH Dollari miqdorida pora olganligi haqida 1 nafar murojaat kelib tushgan. Holat yuzasidan tegishli tartibda o’tkazilgan hizmat tekshiruvi natijasida korhona hodimining hizmat vazifalariga ishga qabul qilish kirmasligi, fuqaroni ishga olib kirib qo’yishga ishontirib, aldab, olingan pullarni o’z manfaatlari uchun sarflab yuborganligi aniqlangan. Hizmat tekshiruvi natijasi bo’yicha barcha hujjatlar yuqori turuvchi tashkilotga taqdim qilingan.

¹Komplayens hizmati boshlig’i



M.Shakirov

**“O‘zChasys” MCHJ QKda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib
chiqish natijalari haqidagi yillik**

HISOBOT

2023 yil 20 dekabr

Namangan shahri

2023 yil davomida “UzChasys” MCHJ.da korrupsiya faktlariga doir 1 dona murojaat kelib tushgan, javobgarlar ishdan bo‘shatilgan, Namangan viloyati prokuraturasiga ma‘lumotlar taqdim qilingan.

To‘plangan hujjatlar prokuratura tomonidan JPKning 83-2-moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad qilingan.

Komplayens xizmati boshlig‘i



T.B.Gafurov